

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Tarix fakulteti «Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi» bakalavr ta`lim
yo`nalishi 4- B kurs talabasi Nurmaganbetov Salamatning
«Milliy g`oya targ`iboti texnologiyasi» fanidan

KURS ISHI



Mavzu: Milliy g`oya targ`iboti, chet texnologiyalar davlatlarda qollanilayotgan

Bajargan:

S. Nurmaganbetov

Qabul qilgan:

A. Abatov

NUKUS-2016

Mavzu: Milliy g`oya targ`iboti, chet davlatlarda qollanilayotgan texnologiyalar

Kirish.....	3
Asosiy qism	
I. bob Milliy g`oya targ`ibotida yangi texnologiyalarning ahamiyati va chet davlatlardagi ta`lim tizimi.....	5
1.1. Texnologiya tushunchasi, uning har xil talqini va rivojlangan davlatlarda ta`lim tizimi(AQSh, Yaponiya, Fransiya,).....	5
1.2. Ped texnologiyaalarning ta`lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati.....	8
II. bob Milliy g`oya fanini o`qitishda qo`llaniladigan ped texnologiyalar.....	15
2.1. Interfaol ta`lim metodlarining milliy g`oya targ`ibotida qo`llanilishi.....	15
2.2. Milliy g`oya targ`ibotida keys texnologiyasidan foydalanish yo`llari.....	24
Xulosa.....	35
Foydalanilgan adabiyotlar.....	37

Kirish.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarinn o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarinn o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Milliy g'oya targ'ibotida ham bunday yangi texnologiyalarda, intiraktiv metodlardan foydalanilmoqda. Bu orqali ta'lim samaradorligi oshirilib, o'quvchi-talabalarga milliy g'oya targ'ibotining mazmunini ochib berib, ularni erkin fikirlashga o'rgatilmoqda.

Kurs ishini maqsadi va vazifasi; Talabalarga yangi pedagogik texnologiyalar asosida milliy g'oya targ'ibotini amalga oshirish yo'llari haqida tushunchalar berish. Chet davlatlarda qollanilayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangiliklardan foydalanib, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishga asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabanning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishin ta'minlashi;

- o'quvchi - talabanning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va o'quvchi-talabanning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchi-talabanning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har-bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkilasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi - talabalar mustaqil fikrlay

olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o`zlari xulosa qila olsalar, o`zlariga, guruxga, gurux esa ularga baho bera olsa, o`qituvchi esa ularning bunday faoliyatlarn uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha ana shu, o`qitish jarayonining asosi hisoblanadi

Kurs ishining dolzarbligi: Ta`lim tizimi oldiga barkamol shaxsni shakllantirish, ta`lim soxasi bilan mexnat bozori urtasidagi nomutanosiblikni qiskartirish hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kabi yangi, dolzarb vazifalar qo`yilmokda. Mazkur vazifalar pedagogik texnologiya nazariyasini yaratish va ta`lim jaraenini puxta loyixalashga erishish zaruriyatidan kelib chikadi. Qayd etilganidek, pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqish dolzarb vazifa sanalib, ta`lim texnologiyalarini yaratish muammolari bo`yicha olib boriladigan umumiy va amaliy tadqiqotlarga keng yo`l bergan xolda ushbu nazariya moxiyatini to`laqonli aks ettiruvchi terminologiyani shakllantirishni taqozo etadi.

Kurs ishining obekti: Milliy g`oya targ`ibotida. Yangi pedagogik texnologiyalar metodlar, ta`lim vositalari o`quv-uslubiy materiallar Insert jadvali, klaster, toifalash va kontseptual jadvallar, , Venna diagrammasi, SWOT - tahlil jadvali, "Nima uchun?"sxemasi, "Baliq skleti", "Piramida", diagramma muhim obyekt xisoblanadi.

Kurs ishini predmeti: Mashg`ulotlar, maruza, amaliy mashg`ulotlar, suxbat va mustaqil ish baxs-munozara zamonaviy interfaol usullar bular tadqiqot metodlarini predmeti hisoblanadi.

Kurs ishining tuzilishi: Kirish, ikkita bob, to`rtta paragraf, xulosa, hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yhatidan iborat

I bob. Milliy g'oya targ'ibotida yangi texnologiyalarning ahamiyati va chet davlatlardagi ta'lim tizimi

1.1. Texnologiya tushunchasi, uning har xil talqini va rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimi(AQSh, Yaponiya, Fransiya)

Pedagogik texnologiya haqida tushuncha. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar tarkibi o'zgarmoqda.

Ta'lim tarkibi yangi protsessual mahoratlar, axborotlar bilan ishlash qobiliyatining rivojlanishi, ilmiy muammo va bozor amaliyoti ijodiy echimining ta'lim dasturlarini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

Axborotning an'anaviy usullari og'zaki va yozma nutq, telefon va global masshtabli telekommunikatsiyalarni ishlatish bilan almashtirilmoqda.

Pedagogik jarayonning muhim tarkibini talaba bilan pedagogning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari tashkil etadi. Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik texnologiyalarning shakllanishida fanning roli ortib bormoqda.

Pedagogik ta'lim texnologiyalarning psixologik-pedagogik nuqtai nazardan takomillashuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

1) yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o'tish, ya'ni o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tish;

2) bilimning assotsiativ statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tarkibiy tizimlariga o'tish;

3) o'rtacha talabaga yo'naltirilganlikdan o'qitishning differentsiallangan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish;

4) talabaning tashqi motivatsiyasidan ichki ma'naviy irodali tartibga solinishga o'tish.

Ta'limda zamonaviy didaktika va ta'lim tarkiblarining samaradorligini oshirish, yangi g'oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishi ishlatilmoqda. Bunda har xil pedagogik tizim bilan o'qitish texnologiyalari o'rtasida bog'liqlik, amaliyotda davlat ta'lim tizimining yangi shakllari (qo'shimcha va al'ternativ) ning aprotatsiyasi, hozirgi zamon sharoitida o'tmishning pedagogik tizimlarini qo'llash muhim hisoblanadi. Bunday sharoitda pedagog, boshqaruvchi

keng ko'lamli zamonaviy innovatsion texnologiyalar, g'oyalar, o'quv muassasalar, yo'nalishlarda ma'lum bo'lgan narsalarni qayta ochishga vaqtini sarflash kerak emas.

Bugungi kunda savodli mutaxassis bo'lish uchun ta'lim texnologiyalarning hammasini o'rganish lozim.

Hozirgi vaqtda pedagogik lug'atda pedagogik texnologiya tushunchasi mustahkam o'rnatilgan. Adabiyotlarda o'nlab ta'riflarni uchratish mumkin. Keling ularning ba'zilarini qarab o'taylik. Jumladan, pedagogika fani va amaliyotida «pedagogik texnologiya», «ta'lim texnologiyasi», «o'qitish texnologiyasi» kabi atamalardan keng foydalanilmoqda. Qo'yida ularning ba'zilarini ko'rib chiamiz:

«**Texnologiya**» - yunoncha ikki so'zdan – «**texnos**» (**techne**) – mahorat, san'at va «**logos**» (**logos**) – fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan. Bu ifoda hozirgi kunda zamonaviy texnologiya jarayonini to'liq tavsiflab berolmaydi.

Texnologiya deganda sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Texnologiya biror bir narsani yaratishni muayyan ketma - ketlik va tartibda amallarni bajarish jarayonidir. Oddiy misol tariqasida o'zbek milliy taomlaridan biri - palov tayyorlash texnologiyasini olaylik. Ushbu taomni tayyorlash muayyan ketma - ketlikdagi, ma'lum tartibdagi (jumladan, vaqt bo'yicha ham) amallarni bajarishni talab etadi. Uni tayyorlash jarayonini palov tayyorlash texnologiyasi, deb atash mumkin.

Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan ketma - ketlikda, tartibda va sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin.

Texnik texnologiya quyidagilarni bildiradi:

- xom-ashyo, materiallar, yarim fabrikatlar yoki mahsulotlarni olish, ularga ishlov berish yoki qayta ishlash yo'llari va usullarining yig'indisi (texnologiyaning jarayonli – bayonli aspekti);

- yuqorida ko'rsatilgan yo'llar va usullarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi fan. Texnologiyaning fan sifatidagi vazifasi, moddiy resurslar va vaqtni eng kam sarflashni talab qiladigan samarali va tejamkor ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash hamda amalda qo'llash maqsadida qonuniyatlarni topish hisoblanadi (ilmiy aspekti);

- jarayonning o`zi – qazib olish, topish, ishlov berish, qayta ishlash, tashish, omborga joylash, saqlash hamda ishlab chiqarishni texnik nazorat qilish (texnologiyaning jarayonli – harakat aspekti).

Ishlab chiqarishda «texnologiya» so`zidan kelib chiqadigan quyidagi tushunchalar ishlatiladi:

-texnologik jarayon – ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig`indisi.

-texnologik operatsiya – ishchi tomonidan o`zining ish joyida bajariladigan, yakuniga etkazilgan harakat ko`rinishidagi jarayonning bir qismi.

-texnologik xarita – ma`lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarning ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat;

-texnologik reja – texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo`lib, ma`lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Ushbu tushunchalarni o`quv jarayoniga mos holda qo`llaydigan bo`lsak, o`qituvchi (pedagog)ning o`qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan ketma - ketlikda, tartibda va sharoitlarda ko`rsatgan tizimli ta`siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo`lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa deb ta`riflash mumkin. Pedagogik texnologiya ijtimoiy zaruriyat bo`lganligidan dastavval AQShda XX asrning 70-yillarida psixologiyaning bixeviorizm oqimi zaminida yuzaga kelib, boshqa rivojlangan mamlakatlarga tez tarqalib ketdi.

Er yuzi mamlakatlari ikki qarama-qarshi lagerga bo`linib, sovuq urush avjiga chiqqan davrda sotsializm tarafdorlari bu ijtimoiy hodisani mafkura nuqtai nazaridan tan olmay, ko`p yillar davomida uni ko`r-ko`rona inkor qilib kelishdi.

XX asr 90-yillarning boshida sotsializm nurab, unga a`zo bo`lgan davlatlar birin-ketin mustaqil bo`lganidan keyin, har jihatdan taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarga, shu jumladan, O`zbekiston uchun ham keng yo`l ochildi.

Mustaqillikka erishgan O`zbekiston olimlari xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma`rifiy aloqalar o`rnata boshladilar. Natijada yurtimizga ilg`or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. Shular qatori jahondagi progressiv pedagogik texnologiya degan tushunchalar ham kirib, pedagogik jamoatchiligimiz fikrini chulg`ab oldi. **Demak, pedagogik texnologiya muayyan ketma- ketlikda, tartibda amalga oshiriladigan, ta`lim oluvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniq maqsadlarga yo`nalgan, puxta**

loyihalashtirilgan, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan va yakuniy natijaga erishishni kafolatlaydigan pedagogik jarayondir.¹

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, pedagogik texnologiya tushunchasi bilan ta'lim texnologiyasi, interfaol uslublar va o'yin kabi tushunchalarni bir birdan farqlash zarur. Ta'lim texnologiyasi tushunchasi aynan ta'lim (o'qitish, o'rganish) sohasiga taulluqli bo'lsa, pedagogik texnologiya tushunchasi nafaqat ta'lim, balki tarbiya jarayonini ham o'z ichiga oladi. Interfaol usullar pedagog va talabalarning o'zaro faolligiga asoslangan ta'lim-tarbiya usullaridir. Rolli va ishbop o'yinlar esa interfaol usullarning bir guruhini tashkil etadi. Pedagogik texnologiya jaryonida bunday usullardan bir nechtasi qo'llanilishi mumkin. Biz ushbu qo'llanmada interfaol usullar va pedagogik texnologiyalarni farqlagan holda, ularni aloxida bo'limlarda bayon etmoqchimiz. Shu bilan birga dunyoning rivojlanga davlatlari ta'lim tizimi haqida aytip otadigan bolsok bularga quydagi davlatlarni misol qilsak boladi:

1.2. Ped texnologiyaalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarinn o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundand-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarinn o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Uqituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakul'tetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi - talabalarni bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

INNOVATSIYA (inglizcha *innovation*) - yangilik kiritish, yangilikdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishga asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib

¹ Saidaxmedon.N.S . "Pedagogik amaliyotda yangi pedtexnologiyalarni qo'llash" T.2006-yil.46-bet

fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu mstodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabani dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishni ta'minlashi;

- o'quvchi - talabani bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va o'quvchi-talabani hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO, komp'yuter, masofali o'qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyani eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchi-talabani belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har-bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkilasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi - talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruxga, gurux esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlarni uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabani xotiradan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ushbu fikrimizni chizma holatida quyidagicha ifodalash mumkin.

Yuqoridagi chizmadan ko'rinib turibdiki, maqsadni amalga oshirish va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham o'quvchining hamkorlikdagi

faoliyati hamda ular qo`ygan maqsad, tanlagan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya`ni texnologiyaga bog`liq¹.

O`qituvchi va o`quvchi-talabanning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o`quvchi-talabalarning bilim saviyasi, gurux xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim, komp`yuter bilan ishlash lozimdir, balkim fil`m, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo`lar, bular o`qituvchi va o`quvchi-talabaga bog`liq.

Shu bilan bir qatorda o`qitish jarayoninn oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o`qituvchi o`quv predmetining o`ziga xos tomoniki, joy va sharoitni, TSONi, eng asosiysi, o`quvchining imkoniyati na extiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qiska qilib aytganda, o`quvchi-talabani ta`limning markaziga olib chiqish kerak.

O`qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko`ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo`lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o`qituvchiga u tomonidan bo`lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o`qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o`quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o`qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo`lishi, shuningdek, juda ko`p metodlar. Usullarni bilishi kerak bo`ladi. Xar bir darsni rang-barang, qiziqarli bo`lishi avvaldan puxta o`ylab tuzilgan darsning loyixalashtirilgan texnologik xaritasiga bog`liq.

Darsning texnologik kartasini qay ko`rinishda yoki shaklda tuzish, bu o`qituvchi tajribasi, qo`ygan maqsadi va ixtiyoriga bog`liq. Texnologik karta qanday tuzilgan bo`lmasin, unda dars jarayoni yaxlit xolda aks etgan bo`lishi xamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to`liq o`z ifodasini topgan bo`lishi kerak. Texnologik kartani tuzilishi o`qituvchini darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday kartada dars jarayonining barcha qirralari o`z aksini topadi.

¹ Saidaxmedov N.S .”Pedagogik amaliyotda yangi pedtexnologiyalarni qo`llash”T.2000-yil.49-bet

Ta`limni texnologiyalashtirish g`oyasi yangilik emas. Bundan 400 yil avval chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ta`limni texnologiyalashtirish g`oyasini ilgari surgan.

U ta`limni “**texnikaviy**” qilishga undagan, ya`ni hamma narsa, nimaga o`qitilsa, muvaffaqiyatga ega bo`lsin. Natijaga olib keluvchi, o`quv jarayonini, u “**didaktik mashina**” deb atagan.

Bunday didaktik mashina uchun: aniq qo`yilgan maqsadlar; bu maqsadlarga erishish uchun, aniq moslashtirilgan vositalar; bu vositalar bilan qanday foydalanish uchun, aniq qoidalarni topish muhimligini yozgan.

Ta`lim nazariyasi va amaliyotida o`quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 50-yillarda birinchi urinishlar qilib ko`rilgan. Ular o`z ifodasini an`anaviy o`qitish uchun majmualari texnik vositalarni yaratishda topgan.

Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiya «o`qitishning texnik vositalari yoki komp`yuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta`lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qo`llash, shuningdek qo`llanilayotgan usullarni baholash yo`li orqali ta`lim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo`llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadidagi tadqiqotdir» .

Barcha ta`lim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiya yo`liga o`tkazish, maktab amaliyoti pedagogik jarayonini ixtiyoriy qurish va uni amalga oshirishdan keskin burilishi quyidagilarni anglatadi:

- uning har bir qism va bosqichlarining izchil asoslanganligi (ta`lim jarayonini tartiblashtirish - batafsil aniqlangan va asoslangan, ishlarni ma`lum tartibidan tashkil topgan qismlar - muloqot, axborot va boshqaruvning yo`l va vositalarini bo`lish orqali mumkin qadar rasmiyatchilik nuqtai nazaridan rasmiylashtirilgan);

- yakuniy natijani haqqoniy tashxis qila olishga yo`naltirilganligini;

- ta`lim jarayoniga mavjud sharoit va belgilangan vaqt ichida qo`yilgan ta`limiy maqsad hamda ijobiy natijaga erishishni ta`minlaydigan ishlab chiqarish-texnologik jarayonining mukammal, aniq yo`lga qo`yilgan, izchil, muvofiqlashgan xususiyatini berish;

- uning samaradorligi va inson imkoniyatlari (kuch, vaqt)ni maqbullashtirish maqsadi bilan butun ta`lim jarayonini boshqaruvchanligi.

XVII asr XVII asrda Yan Amos Komenskiy, shunday ta`lim mexanizmi, ya`ni “vaqt, narsalar va usullar” mohirona taqsimlansa, uni to`g`ri tuzish va undan to`g`ri foydalanilganda kutilayotgan natijani bersa, ya`ni uni «didaktik mashina» deb nomlab, u ustida izlanish olib borgan «Didaktik mashina»

- 30 –yillar

- 50-yillarning o`rtasi

- 30–yilning o`rtasida AQShning Indiana universitetida talabalarga eshitish va ko`rish (audiovizual) ta`limi bo`yicha ma`ruzalar o`qilgan, 1946y. – shu erning o`zida eshitish va ko`rish (audiovizual) ta`limi bo`yicha mutaxassislarni tayyorlash kursi: ishlab chiqarishni rejalashtirish, eshitish va ko`rish (audiovizual) vositalarni ishlatish va ular sifatini baholash, shu vositalarni qo`llab o`quv jarayonini boshqarish dasturlari kiritildi.

1954y. – professor B.F. Skinner tomonidan ishlar taqsimoti (mavzu-qadam-xodimlar) bo`yicha o`rgatishning muntazamli texnologiyasini o`zida namoyon etuvchi, dasturlashgan ta`lim modeli (DT) asosladi.

Qaytar aloqani nazarda tutuvchi: har bir bajarilgan ishning to`g`riligini tezkor baholash va agarda keyingi qadamga xatolik bo`lsa qaytarish deb ta`kidlagan.

“Ta`limda texnologiyalar” -

“... ma`lumotga ega bo`lish sohasida zamonamizning bo`lagi bo`lgan kashfiyotlar, sanoat mahsulotlari va jarayonlarini qo`llash” (M. Klark). Pedagogik maqsadlarda axborotni taqdim etishda eshitish va ko`rish (audiovizual) vositalarini qo`llash.

50 – 60 –yillar o`rtasi 1958yo. –N. Krauder bir qator berilgan va javoblarni to`g`riligiga bog`liq ravishda qaytar aloqaga muvofiq javoblarni ko`p tanlash DT kengaytirilgan chizmasini taklif etdi.

«O`rgatuvchi texnologiya»

(D. Finn,1959) – pedagogik maqsadda maxsus yaratilgan eshitish vositalaridan foydalanish va ulardan foydalanish uslubiyoti.

70 -80 - yillar

Ta`lim texnologiyasini ilmiy asosini axborot, telealoqa nazariyasi, pedagogik kvalimetriyasi, tizimli tahlil, bilish jarayonini boshqarish nazariyasi, ta`lim jarayonini qulaylashtirish, pedagogik mehnatni ilmiy tashkillashtirish va boshqalar.

Eshitish vositalarining yangi turlari:

videomagnitofon, aylanmali kadroproektor, elektron va bloknotli yozuv taxtasi va boshqalar chiqara boshladi.

Ta`lim texnologiyasi muammolari bo`yicha Halqaro anjumanlarda ta`lim texnologiyasiga umumiy mohiyat taklif etildi.

TT qo`llanish sohasi - (1) o`qitishning **“Ta`limiy texnologiya”** TT - “ta`lim texnik vositalari yoki komp`yuter sohasidagi” izlanishlar emas; bu ta`lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish yo`li bilan, tuzilmaga keltirish

hamda yo`l va materiallarni qo`llash yo`li bilan, shuningdek qo`llanilayotgan usullarni baholash orqali ta`lim jarayonini eng maqbullashtirish printsiplarini aniqlash va yo`llarini ishlab chiqish maqsadidagi izlanishdir”. texnik vositalari, (2) ma`lumot olish muammolariga tizimli yondashishi. “Birinchisi soha o`qitish vositalarida texnika yutuqlarini amalga oshirish bilan, ikkinchisi soha esa, pedagogik nazariyani rivojlanishi bilan, ularni tashkillashtirishning umumiy nazariyasi birlashtirishi lozim bo`lgan ilovaga bog`liq, ya`ni ta`lim muammolariga tizimli yondashishdir ”.

P.D.Mitchel (1970 y.) TT bo`yicha manbalarni tahlil etishi natijasida TT ma`nosi va pedagog-texnologlar vazifasi asosini shakllantiradi: “Kutilayotgan pedagogik natijalarni olish uchun inson, moddiy va moliyaviy manbalarni maqbul taqsimlash”.

TT pedagogikada nazariy bilim sohasi deb qabul qilinishi: “TT muammolarining nazariy tadqiqotlarini ishlab chiquvchi oqim, mohir texnologlarning yangi avlodi paydo bo`ldi” (M. Eraut).

“Faqat sodda odamlargina, texnologiyani - faqat moslamalar va o`quv materiallar majmui deb hisoblaydilar”. Bu bundan ko`prog`ini angalatadi. Bu tashkillashtirish yo`li, bu materiallar, insonlar, tashkilot, modellar va tizim turidagi “inson-mashina” to`g`risidagi tasavvur. Bu muammoning iqtisodiy imkoniyatlarini tekshirish. Bundan tashqari, texnologiya fan, san`at va inson qadri o`zaro harakatiga muhim bo`lgan aloqaga ega.

TT “Ta`lim vositasi”ning sinonimii hisoblanmasdan, u fanlararo xilma-xil tasodiflar yig`indisi, ta`limning barcha jihatlari bilan bog`liq bo`lgan, qisqa ta`limiy lavhadan to`g`risidagi barcha harakatlaridagi milliy tizimlari hisoblanadi” – D. Finn, London, 1978 y.

80 - yillarda TT to`g`risida Rossiya olimlarining birinchi nashrlari paydo bo`ldi: “... horijiy tajribalar hozir bizda yaxshi ma`lum bo`lmay turibdi. Lekin TT eshigimizni taqillatayapti” (Klarin, 1989).

(Международный егедоник потехнологии образования и обучения – Лондон – Нью -Йорк, 1978г.

“TT dastlabki mohiyati pedagogik maqsadlarda muloqot qilishning eshitish va ko`rish vositalari, ko`rsatuv, komp`yuter va boshqa turdagi “yumshoq” va “qattiq” vositalardan foydalanishni anglatgan. Yangi va kengroq ma`noda esa, - ta`lim olish shakllarini maqbullashtirishni o`z vazifalari deb qo`yuvchi, butun ta`lim berish jarayonini hamda bilimlarni texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda o`zlashtirish va ularning o`zaro harakatini yaratish, qo`llash va aniqlashning tizimli usulidir”. (YuNeSKO, 1986 y.)

«Pedagogik texnologiya» – atamasi pedagogika fanida vujudga keldi.

90-chi yillar TT muammolarini: V.P. Bepal'ko, V.Guzeev, V. Klarin, V Monaxov, G. Selevko, S.Saidaxmedov, J. Yo'ldoshev, S. Usmonov, M.Ochilov va boshqalar ishlab chiqdilar.

XXI asrning 1-o'n yillari "Pedagogikaning predmeti inson tabiati (bog'liq bo'lgan) va o'quv-tarbiyaviy harakatlarining samarasi o'rtasidagi qonuniyatli munosabatlar hisoblanadi". Bir qancha uslubiyotlardan "tanlash huquqi" o'rniga, ilmiy, tabiatga oid pedagogika berilgan yoki insonni to'g'risidagi aniq bilimlari asosida mavjud sharoitlar uchun **harakatlanishning maqbul yo'llarini ongli loyihalashni** taklif etadi. Ma'lumki, muammoning bunday berilishida pedagogika "tajribani umumlashtirish" va "omma ijodkorligi" botqog'idan ilmiy izlanish maydoniga va yuqori asosli psixologiya – pedagogika muhandisligiga o'zgaradi. Ushbu matn parchasida **TT - berilgan sharoitda pedagogik vazifalarga maqbul erishish yo'llaridir**. Berilgan sharoitda maqbullik - texnologiyani hammabop tizimli belgisi.

"Pedagogika uchun texnologiya ma'nosiga alohida, hech nimaga o'xshamaydiganlar, shuningdek unga texnik takrorlanish ma'nosini o'ylab topishga hech qanday sabab yo'q. Mohiyati bo'yicha mavjudlik va ishlab chiqarishlik, ijtimoiylik, insonshunoslik va texnologiya vazifalarini berilishidek qabul qilish kerak" (A.M.Kushnir, 2004 y.).

II. bob Milliy g'oya targ'ibotida xorijiy davlatlar texnologiyasidan foydalanish

2.1. Interfaol ta'lim metodlarining milliy g'oya targ'ibotida qo'llanilishi

Klaster (axborotni yoyish) usuli

Bu usulning asosiy vazifasi o'rganilayotgan ob'ekt – talabalar faoliyatini, pedagogik voqelikni qismlarga ajratgan holda o'zlashtirishga yo'naltiradi. Unda ko'p variantlilik asosida tushuncha va hodisalarning o'zaro ichki hamda tashqi bog'lanishlarini aniqlash ko'nikmalarini shakllantiradi, mavzu bo'yicha fikr-mulohazalarni erkinlashtirishga yordam beradi.

Mavzu bo'yicha klasterlarin tuzish, o'quv maqsadiga qarab, bosqichma-bosqich harakatlanishni taqozo etadi, ohir oqibatda yakuniy natija yangi bilimlarni o'zlashtirish, fikrlar hilma xilligini yaxlitlash asosida qo'lga kiritiladi.

Klaster usulidan foydalanish uchun uquvchilarni kichik guruhlariga (3-5) ajratish talab etiladi. Har bir guruhda mavzuga oid o'quv elementlari tanlanadi buning uchun auditoriyada darslik, o'quv qullannmalari ,ma'ruza matnlari va boshqa axborot manbalari bo'lishi lozim. O'qituvchi alohida o'quv elementlarini o'zlashtirish uchun 15-20 daqiqa vaqt ajratadi.

Klaster tuzish bosqichlari:

Auditoriya yozuv taxtasiga kichik guruhlar soniga qarab vatman (chizmachilik qog'oz) osiladi (kalit) so'zlar o'qituvchi (ayrim hollarda talabalar) tomonidan yoziladi.

Mavzu bo'yicha o'quv elementlariga tegishli fikrlar (qonun, fakt, tezis, hodisa, jarayon, natija) aniq fe'l bilan ifodalangan holda qog'ozga yoziladi.

Asosiy tushuncha va g'oyalar o'rtasidagi aloqadorlik chizmada ko'rsatiladi.

Kichik guruhlardagi barcha o'quvchilar o'z variantlarini qog'ozga yozishadi.

Fikrlar shajarasi umumlashtiriladi va yakuniy xulosalar qayd etiladi.

O'qituvchi talabalar faoliyatini nazorat qiladi va ob'ektiv baholaydi

Misol uchun B.Blumning "O'quv maqsadi taksonomiyasi" mavzusi bo'yicha klaster tuzish ketma-ketligini keltiramiz:

Blum taksonomiyasi aniqlangan o'quv faoliyati sohalari (O'E № 1)

kognitivli; (bilish sohasi)

affektiv (hayajonli, qadriyatli) soha;

Psixomotorli sohasi;

Blum taksonomiyasini tuzishda tayaniladigan tamoyillar (O`E № 2)
amaliy, psixologik, mantiqiy ,ob`ektivlik.

Kognitiv soha bo`yicha o`quv maqsadlari toksonomiyasi (O`E № 3)
bilish, anglash, qo`llash, taxlillash, sintezlash, baholash.

Bu misolda 3 ta kalit so`z keltiriladi ular o`z navbatida tegishli o`quv elementlarini qamrab olishi o`quvchilar tomoindan aniqlanadi. Har bir o`quv elementiga oid tushunchalar mazmunan ketma-ketlik saqlangan holda vatman qog`ozga yoziladi va fikrlar yoyilmasi chizmasi yaratiladi.

Sinkveyn (axborotni yig`ish) usuli

Metodni qo`llash jarayonida o`quvchilardagi tarqoq axborotli jarayonlar asta sekin bosqicha-bosqich yo`naltirilgan jarayonga aylantirib boriladi. Ya`ni o`rganilgan bilimlarni mavzuni o`rganish davomida o`rganildai. Muayyan voqelik to`g`risida yakdil fikrga kelinadi. Buning uchun o`quvchilarda besh imkoniyat mavjud bo`ladi ya`ni sikveyn beshqatordan iborat o`ziga hos “oqshe`r” (qofiyasiz) bo`lib, o`rganilayotgan mavzuga oid tushunchalar (hodissa, jarayon, voqea) qat`iyan ketma-ketlikda yozib chiqiladi. Sinkveyn orqali o`quvchilar o`z fikrlarini to`plash ixcham ifodalash mulohazalarni sintezlash va mavzu bo`yicha to`g`ri xulosalarni takomillashtirishga o`rganishadi.

Sinkveyn tuzish tartibi:

Birinchi qatorda mavzuga oid bosh g`oya (tayanch tushuncha) bir so`z (ot) bilan qayd etiladi.

Ikkinchi qatorda bosh g`oya ikki sifat bilan ifodalanadi.

Uchinchi qatorda mavzuga oid tushunchalar uch so`z bilan bayon qilinadi.

To`rtinchi qatorda mavzuga oid fikr (nazariya, fakt)lar tshrtta so`zdan iborat bo`lishi lozim.

Sunggi qatorga mavzu mohiyatini oydinlashtiradigan (yoki ma`no jixatidan yaqin bo`ladigan) bitta so`z yoziladi bu ketma-ketlikni quyidagi chiziqlar bo`yicha loyihalash mumkin.

1. _____ topshiriq

2. _____

3. _____

4. _____

_____ natija

Odatda sinkveyn mavzu bo`yicha biror muammoli vaziyatli echish yoki alohida o`quv elementlarini mukammallashtirishda talaba tafakkurini charxlash uchun tuziladi

agar birinchi qatordagi mavzu soʻz turkumi – ot orqali ifodalansa, ikkinchi qatorda topshiriqning muhim hossalarni belgilovchi bir juft sifatni oʻquvchi oʻylashi koʻp variantli javoblardan eng maqulini olishi lozim.

Aqliy hujum usuli

Dars jarayonda “Aqliy hujumdan” maqsadli foydalanish ijodiy andozasiz tafakkurlashni rivojlantirish manbai hisoblanadi. Aqliy hujumni uyushtirish sodda boʻlib, undan taʼlim mazmunini oʻzgartirish jarayonida, ishlab chiqarish muammolarini echimini topishda ham foydalanish mumkin. Dastlab guruh yigʻilib, ular oldiga muammo qoʻyiladi. Bu muammo echimi toʻgʻrisida ishtirokchilar oʻz fikrlarini bildirishadi bu bosqichda hech kimning oʻzgalar gʻoyasiga hujum qilishi yoki baholashga haqqi yoʻq. Demak, aqliy hujumda qisqa vaqtda oʻnlab gʻoyalarning yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud boʻladi. Aslida gʻoyalar soni maqsad emas, ular muammo echimi uchungina asos boʻladi. Bu metodlar shartlaridan biri qatnashuvchilarning har biri tashqi taʼsirsiz faol ishtirokchi boʻlishi kerak.

Shunday qilib, aqliy hujum qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

olgʻa surilgan gʻoyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
ish sifatga emas, songa qaratiladi, gʻoyalar qancha koʻp boʻlsa, shuncha yaxshi;
istalgan gʻoyani mumkin qadarmukamallashtirish va rivojlantirish mumkin;
muammo echimidan gʻoyalar ham qoʻllab-quvvatlanadi;
barcha gʻoyalarning asosiy mavzulari (farazlari) yozib olinadi;
“hujum” vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish koʻzda tutiladi.

Vazifasi. “Aqliy hujum” qiyin vaziyatdan qutulish choralarini topishga, muammoni chegarasini kengatstirishga, fikrlar xilma-xilligiga erishishga va tafakkur doirasini kengaytirishga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni echish jarayonida ijodiy hamkorlik kuchayib, guruh (auditoriya) yanada jiplashadi.

Obʻekti. Qoʻllanish maqsadiga koʻra, bu metod universal hisoblanib, tadqiqotchilikda (yangi muammoni echishga imkon yaratadi), oʻqitish jarayonida (oʻquv materiallarini tezkor oʻzlashtirishga qaratiladi), fikrni mustahkamlashda (oʻz-oʻzini boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantiradi) asqotadi.

Qoʻllanish usuli. «Aqliy hujum» ishtirokchilari muammo boʻyicha mulohazatliklarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib olinadi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflanadi va ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. «Aqliy hujum» tugagach, eng yaxshi takliflar birlashtirib, muammoni echish uchun zarurlari tanlanadi.

«Ajurli arra» usuli

«Ajurli arra» metodi tezilish jihatidan quyidagilarni o`z ichiga oladi:

1. Topshiriqni bo`lish: topshiriq va matnli materiallar bir nechta asosiy qismlarga bo`linadi.

2. Birlamchi guruhlar: gurux a`zolari mavzuni olgach, ekspert hisoblanadi.

3. Ekspert guruxlari: mavzuga oid o`quv topshiriqlari bo`lgan talabalar uni muhokama qilish, bajarish uchun ekspert guruxiga birlashadi.

4. Birlamchi guruhlar: talabalar o`z birlamchi guruhlariga qaytadilar va ekspert guruhlarda o`rganganlarini o`qitishadi.

«Munozara» usuli

Bu metod yordamida o`quvchi-talabalarga ma`lum mavzu bo`yicha axborot etkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni talabalar «shturm» qiladilar, natijada, unga oid ma`lumotni atroflicha o`rganiladi.

Munozarani o`tkazish metodikasi

1. Munozara olib boruvchi – boshlovchi (o`qituvchi) mavzuni tanlab, ishtirokchilarni taklif etadi.

2. Boshlovchi ishtirokchilarga «Aqliy hujum» topshirig`i qoidalarini tushuntiradi:

«hujum»dan maqsad – muammo echimiga oid variantlarni ko`proq taklif etish;

o`z bilimingizni umumlashtirib, e`tiborni muammo echimiga qaratib, fikrlar bildiring. Bildirilgan g`oyalar umumiy fikrga zid bo`lsa-da, hech bir rad etilmaydi;

boshqa ishtirokchilar g`oyalarini hamqo`llab-quvvatlang;

taklif etilganlarni baholash bilan keyinroq shug`ullanasiz.

3. Boshlovchi kotib tayinlaydi va u aytilgan barcha g`oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so`zga chiquvchilar aniqlanib, munozarada barcha ishtirokchilar qatnashadi, o`z fikrlarini ifodalash imkoni beriladi. Agar biror kishi tomonidan uni o`tkazish qoidalari buzilsa, boshlovchi uni xolisona hal qiladi. Birinchi bosqich yangi g`oyalar paydo bo`lguncha davom etaveradi.

4. Boshlovchi ishtirokchilarining tanqidiy tafakkuri «charxlanishi» uchun qisqacha tanaffus e`lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. Ishtirokchilar guruhlariga bo`linib, birinchi bosqichda bildirilgan g`oyalar mustahkamlanadi. G`oyalar guruh bo`yicha birlashtirilib, ular tahlil qilinadi, natijada o`rtaga qo`yilgan muammoning echimiga oid bo`lgan fikrlargina ajratib olinadi.

Boshlovchi munozaraga yakun yasaydi.

«O`z o`rningni top» usuli

Agar auditoriyada muayyan mavzu bo`yicha tortishuvlar vujudga kelsa, mazkur metod yordamida muammo echimi aniqlanadi. Undan asosan darsning kirish qismida foydalanishadi, o`tilayotgan mavzu turli yondashuvlar mavjudligi aytiladi. Bir tomondan. Ikkinchidan, o`quvchi-talabalar fikrini bayon qilishi, o`zgartirishga imkon tug`iladi. Nihoyat, dars so`nggida o`qituvchi mavzuni o`zlashtirish darajasini baholaydi.

1. Auditoriyaning qarama-qarshi burchaklariga ikkita plakat osiladi. Ularning biriga “roziman”, boshqasiga “rozi emasman”, degan so`zlar yoziladi. Plakatlarda ba`zan mavzuga oid savollar bo`yicha qarama-qarshi fikrlar ham yozilishi mumkin. Masalan: “anjir gullaydi va meva tugadi” yoki “anjir gullamasdan meva tugadi”.

2. Darsni tashkil etish qoidalari muhokama qilinadi.

3. O`quvchi-talabalarga o`rganilayotgan muammo yuzasidan o`z fikrlariga mos keladigan plakat yoniga borish taklif etiladi.

4. O`quvchi-talabalardan o`z qarashlarini asoslash so`raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o`tish ruxsat etiladi va shu tariqa o`quvchi-talabalarining hammasi jalb etiladi.

5. Muammo bo`yicha fikrlar bildirilgach, o`quvchi-talabalar ichida munozara davomida o`z nuqtai nazarini o`zgartirishlari yoki boshqa guruhga o`tishlari mumkin. Bunday hollarda buning sababini asoslashlari kerak.

6. Ishtirokchilardan opponentlari ichida muammo yuzasidan eng ishonchli fikr aytgan talabalarni aniqlanadi.

“Kichik guruhlarda ishlash”

Kichik guruxlarda ishlash o`quvchi-talabaning faolligini oshiradi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan o`rganish imkoni tug`iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o`rgatadi.

Qo`llash usuli

1. Faoliyatni tanlash. Mavzuga oid muammo shunday tanlanadiki, natijada o`quvchi-talabalar uni o`rganish (bajarish) uchun ijodiy faoliyat ko`rsatishlari zarur bo`ladi va vazifalar belgilab olinadi.

2. Zaruriy asos yaratish. O`quvchi-talabalar kichik guruhda qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo`yicha etarli bilim, ko`nikmaga ega bo`lishlari kerak.

3. Guruhni shakllantirish. Odatda, har bir guruhda 3-5 talaba bo`ladi (ba`zan, kam yoki ko`p bo`lishi mumkin). Agar guruhda ishlash ma`lum yozma hujjat tayyorlashni talab etsa, 2-3 kishilik guruh tuzilgani ma`qul. Guruh tarkibi masalaning

muhimligi, auditoriyadagi o`quvchi talabalar soni, ularning bir-biri bilan o`zaro harakatiga bog`liq holda o`zgaradi. Eng yaxshisi, “getrogen” guruh tashkil etishdir. (jinsi, o`zlashtirish darajasi va boshqa belgilar asosida).guruhda ishlash talabalar o`rtasida vazifalarni aniq taqsimlashga asoslanadi. (Misol uchun, bir o`quvchi-talaba munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib boradi, uchinchisi spiker (sardor) rolini o`taydi va hokazo). Auditoriyani guruhlarga ajratish, taklif yoki hisob bo`yicha amalga oshiriladi.

4. Aniq yo`l-yo`riqlar ko`rsatish. Talabalarga faoliyatni bajarish uchun ixcham tarzda aniq tushuntirish beriladi. O`qituvchi guruhlarning ishlash tezligi turlicha bo`lishini inobatga olgan holda vaqt chegarasini aytadi. Guruhlar kerakli material va axborot bilan ta`minlanadi. Talabalar ish boshlashlari uchun vazifalarini tushunib etganligi tekshiriladi.

5. Qo`llab quvvatlash va yo`naltirish. O`quvchi guruhlar to`g`ri ishlayotganligini qayd etadi, ularga zarurat tug`ilsa yordam beradi, guruhlarga tazyiq o`tkazilmaydi.

6. Muhokama qilish va baholash. Guruhlarda ish yakunlangach, uning natijalari bo`yicha axborot beriladi. Buning uchun har bir guruh o`z sardorini belgilaydi. Zarurat tug`ilsa, faoliyat natijalari bo`yicha fikrlarni o`qituvchi yozib boradi. Muhimi, guruh echimining asoslanishini aniqlashtirib olishdir. Agar vaqt etarli bo`lsa, muayyan fikrni asoslashda guruhlar bir-biriga savol berishlari mumkin, uning natijalari o`qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda faoliyatni to`g`ri va aniq bajarish, vaqt sarfi asosiy mezon hisoblanadi.

“Menyu” usuli

Yakka tartibda yok kichik guruhlar bilan ishlashni xoxlagan o`qituvchiga “Menyu” metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda kichik guruh (talab)ga aniq topshiriq beriladi. Misol uchun, “Milliy mafkuraning asosiy g`oyalari” o`qituvchi har bir guruh uchun alohida topshiriq tayyorlaydi:

Vatan ravnaqi

Yurt tinchligi

Xalq farovonligi

Komil inson

Ijtimoiy hamkorlik

Millatlararo totuvlik

Dinlararo bag`rikenglik

Har bir guruh topshiriq oladi va 3 minut davomida muhokama qilishadi, so`ngra guruh vakili o`qituvchi stoliga kelib, tayyor “Menyu”ni olib qaytadi. Bu uzun

qirgʻilgan qogʻoz – “tillar” boʻlib, ularda xilma-xil huquq asoslari bayon qilingan. Guruh vakili “tillar”dan birini tanlab oladi va oʻz guruhiga qaytadi. Boshqa oʻquvchi-talaba ham shu ishni bajaradi va zaruriy materiallar yigʻilguncha bu holat davom etadi. 10 minut davomida topshiriq muhokama qilinadi va rasmiylashtiriladi. Bu metoda javoblar ogʻzaki boʻlishi mumkin. Boshqa guruh vakillari savollar berishadi, oʻqituvchi esa guruh ishlarini, sardor faoliyatini baholab boradi.

“Debatlar” usuli

“Debatlar” asosida darsni tashkil etishdan asosiy maqsad muammo echimini topishda talaba oʻz yondashuvining toʻgʻriligiga oʻzgalarni ishonirishdir. Oʻz fikrlarini aniq va loʻnda bayon etish, buning uchun toʻgʻri dalil va xulosa topish koʻnikmasini shakllantirishda “debatlar” samarali metod hisoblanadi.

Metodik tavsiyalar:

“Debatlar” mavzuni rezolyutsiya shaklida ifodalashi kerak. Maʼlumki, rezolyutsiya har doim mavjud holatni oʻzgartirishni talab etadi. Misol uchun, “Qabul qilingan: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oʻlim jazosini bekor qildi”.

Mashgʻulotga mahalliy mutaxassislardan (olim, vrach, muhandis, ijtimoiy arbob va boshqa) biri taklif etiladi. Debatda talabalar ikki guruhga ajratiladi: rezolyutsiyani qoʻllab-quvvatlovchilar va ularga qarshi chiqaruvchilar. Gurux sardori reglamentga rioya qilish kuzatuvchi-yordamchi tayinlaydi.

“Konstruktiv argumentlar” 3-5 holatga asoslangan; mantiqiy ifodalangan va dililiy materiallar bilan mustahkamlangan argumentlar tayyorlash uchun talabalarga etarlicha vaqt beriladi. Ularga muammoning mohiyatini anglash va oʻz fikrlarini mustahkamlash uchun mantiqiy argumentlar tayyorlashda oʻqituvchi yordam berishi kerak. Shu bilan birga, talabalar qarshi tomon bildirajak fikrlarni taxmin qilishlari va oldindan uni inkor etishga ham tayyorgarlik koʻrishlari lozim.

Talabalarni shunday dalil-isbot topish koʻnikmasiga oʻrgatish kerakki, bildirilgan fikrni qarshi tomonning muhokama qilishiga oʻrin qolmasin. Shundagina talabalar tengdoshlarining qarashlarini hurmat qilishga yoki oʻz bilimi auditoriyadoshining bilimi oldida kam ekanligini tan olishga oʻrganadi, eng asosiysi, ularda erkin fikr yuritish koʻnikmalari shakllanadi.

“Tanqidiy fikrlash” usuli

Vazifasi. Demokratik jamiyatda har bir fuqaro oʻz muammosini oqilona echish qobiliyatiga ega boʻlishi kerak. Shu boisdan oʻquvchi-talabalarni bahs-tortishuv orqali masalaning echimini topishga koʻproq jalb etish lozim.

Savollarni echishda o`quvchi-talabalarda tinglash, muloqot olib borish, turli fikrlarni taqqoslash, o`zgalar fikriga befarq qaramaslik kabi odatlar shakllana boradi, masalani echish va hukm chiqarish, analitik fikrlash qobiliyati rivojlanadi, munozara yuritish, echimlarni to`g`ri topish malakalari o`zlashtiriladi.

O`tkazish usuli. Munozarali savollarni tahlil qilish va xolisona fikr yuritish ko`nikmalarini rivojlantirish uchun metodlar mavjud. Mavjud voqelikni tanqidiy fikrlash asosida baholash quyidagi bosqichlardan iborat bo`lishi mumkin:

O`quvchi-talabani o`z fikrini erkin ifodalashi.

O`quvchi-talabaga aytilgan muammo bo`yicha o`z o`rnini aniqlab olishi uchun imkon beriladi. Masalan, Toshkentda 16 fevral` voqealari nima uchun sodir bo`lganligi to`g`risida o`quvchi-talabadan javob olish uchun qator savollar bilan murojaat qilish mumkin: Sening fikrning qanday? Bu haqda sen qanday fikrdasan? va boshqa.

O`z fikrini oydinlashtirish.

O`quvchi-talabani fikrini yanada aniqlashtirish maqsadida unga qo`shimcha tarzda quyidagi savollar beriladi: Bu bilan nima demoqchisan? O`z fikringni tushuntira olasanmi? Bu nima degani?

O`quvchi-talabalar fikrlarini asoslanganligini tekshirish.

Bunda quyidagi savollar berilishi mumkin: Nima uchun sen aynan shunday deb o`ylaysan? Sening mavqeingni tasdiqlovchi qanday asoslar bor? Nima uchun senda shunday fikr tug`ildi? O`z fikringni qanday isbotlaysan?

O`zgalar fikrini o`rganish.

Inson o`z fikrining ojizligini har doim ham tan olavermaydi. Shuningdek, suhbatdoshining fikriga hurmat-ehtirom bilan ham qarayvermaydi. Bu holatni ko`proq o`smirlarda kuzatish mumkin. Ba`zan muammolar echimini topishda o`zgalar fikrini tinglash ko`nikmasi juda asqotadi. Bu ko`nikmani talabalarda shakllantirish uchun quyidagi savollar bilan murojaat qiling: O`z fikringizga muqobil bo`lgan holatni ayta olasizmi? Bu haqda boshqalar nima deydi? Tanqidga uchrashingiz mumkin?

O`z va o`zgalar fikrini tahlil etish.

O`quvchi-talaba o`z fikri bilan o`zgalar fikrini o`zaro taqqoslash, ilmiy asoslangan holatni aniqlash uchun fikrlar qarama-qarshiligini tahlil etishi kerak. Shunda quyidagi savollar asqotish mumkin: o`z fikring qanday? Qarshi tomonning dalil-isboti nima uchun to`g`ri yoki noto`g`ri? Qanday fikrlar seni qanoatlantiradi?

Tahlil qilinayotgan muammo bo`yicha turli fikrlarning mantiqiy natijalarini o`rganish uchun savollar: Agar sizning g`oyangiz qabul qilinsa, nima ro`y berishi mumkin? U jamiyatga qanday ta`sir ko`rsatadi? Foyda beradimi?

. Muammo natijasini qabul qilish.

Bu “tanqidiy fikrlash” usulining so`nggi bosqichi hisoblanib, talabalar fikrlari qaytadan baholanadi va mutanosiblik aniqlanadi. Buning uchun: Qaysi natija eng qulay va ishonchli? Kimning chiqishi maqsadga muvofiq bo`ldi? Siz bahsga qanday nuqta qo`ygan bo`lardingiz? kabi savollar asqotishi mumkin.

2.2. Milliy g'oya targ'ibotida keys texnologiyasidan foydalanish yo'llari

Keys haqida umumiy tushuncha. Asosiy toifalar va tushunchalar

- **Keys-stadi** (inglizcha case - to'plam, aniq vaziyat, stadi -ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi echimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir.

- **Keysda bayon qilingan vaziyat** institutsional tizimda (shu o'rinda va keyinchalik - korxonada) diskre (ayni shu) vaqtda tashkiliy hayotdagi tipik muammolarni qayta yaratadigan real yoki sun'iy qurilgan hodisalarning ideal tarzdagi in'ikosidan iboratdir.

- **Muammoli vaziyat.** Mazkur holda vaziyat sub'ektining hozirgi vaqtda yoki kelgusidagi maqsadlarga erishishiga xavf soladigan vaziyattushuniladi.

Keys: tarixiy ma'lumot

U ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo'llanilgan edi. 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

Keys stadining maktablari

Keys stadi ishlab chiqishning ikki klassik maktabi Garvard (Amerika) Manchester (evropada) *Muammoli vaziyatning echimini topishni o'rganish yo'li* yagona to'g'ri ko'p variantli echimlar *hajm o'nlab* sahifali matnni va ko'plab chizmalarni o'z ichiga oladi. Hajmi birmuncha kamroq

2. Keysni ishlab chiqishning protsessual tizimi

Keysni ishlab chiqish modeli

- 1) Maqsadning qo'yilishi
- 2) Muammoning shakllanishi
- 3) Keys dasturiy kartasining ishlab chiqilishi
- 4) Institutsional tizimni izlanishi
- 5) Axborotni yig'ish usullari va vositalarining tanlanishi
- 6) Axborot yig'ilishi, keys mavzulari bo'yicha tanlash
- 7) Vaziyat modelining qurilishi

8) Keys matnining yozilishi

9) Keysning to'g'riligi va samaradorligining tekshirilishi

10) Keysning natijaviy variantining tayyorlanishi

11) Keysning ta'lim amaliyotiga joriy etilishi

Keysologning ijodkorligi

Sotsium, institutsional tizim, DTSdagi o'zgarishlar

Yo'q

Ha

DTS Didaktika

Keysologning kasbiy mahorati

Maqsadning qo'yilishi

- Keysning o'quv kursi tuzilmasidagi o'rnini belgilash.

- Uning ta'lim maqsadini to'liq ifoda etish.

- Keysning talabalarning ta'limdagi yutuqlari natijalari uchun «mas'uliyat zonasi»ni aniqlash: o'zlashtirilishi kengaytirilishi rivojlantirilishi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar ro'yxati.

Muammoni ifodalanishi

Muammo qandaydir harakatlar qilish uchun etilgan zarurat bilan uni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar etishmasligi o'rtasidagi ziddiyatning amal qilishi va ifodalanishi shaklidan iboratligi sababli muammoning ifodalanishi ana shu ziddiyatni belgilash. Asosiy tarkibiy qismlari – muammo tuzilmasini (kichik muammolarni) belgilashni.

Keys dasturiy kartasining qurilishi

- **Keysning dasturiy kartasi** keys uchun axborot yig'ish va vaziyatni bayon qilish uchun asos bo'ladigan asosiy masalalar (tezislar)ning tuzilmalangan ro'yxatidan iborat bo'ladi.

- *Quyida taqdim etilgan misoldagi keysning dasturiy kartasi savollar shaklida ishlab chiqilgan. Bu talaba – keysologning axborot yig'ish, shu jumladan interv'yu shaklida yig'ishi, va uni bayon qilish vazifasini engillashtiradi.*

Axborot yig'ish usullari va vositalarining tanlanishi

Interv'yu. Suhbat. O'rganish (arxiv hujjatlari, hisobotlarni) Kuzatuv va hokazo.

Keys uchun axborot yig'ish usullari Axborot yig'ish vositasi

So'rovnoma varag'i. Interv'yu olish varag'i. Anketa. Har xil jadvallar va boshqalar

Axborot yig'ish

- statistik materiallar, hisobotlar;

- Vaziyat ob`ekti faoliyati haqidagi ma`lumotnomalar, axborotlar, prospektlar va boshqa ma`lumotlar;
- Internet;
- Ommaviy axborot vositalari;
- Korxonalar raqiblari, uning ta`minotchilari va iste`molchilari, tarmoqdagi ekspertlar yoki turli investitsion fondlar tahlilchilari bilan muloqot;
- Talabalarning o`quv va diplom loyihalari, magistrlik dissertatsiyalari;
- Ilmiy maqolalar, monografiyalar.

3. Keys matnining yozilishi

Qaror qabul qiladi:

Keys o`z hajmiga ko`ra qisqa yoki o`rtacha miqdorda yoxud katta bo`ladimi? Bu savolli keysmi yoki keys-topshiriqmi? Keysda muammo qanday usulda beriladi? Keys tuzilmasi bo`yicha qanday bo`ladi? Keys yozishga kirishiladi. **Keysolog faoliyati mazmunini**

Keysda muammoni berish usullari:

- **1-usul** – muammoni keysolog ifodalaydi.
- **2-usul** – vaziyatdagi muammo yaqqol ifodalanadi, lekin bunda vaziyatning zarur elementlaridan biri;
- **3-usul** – matnda vaziyat sub`ektlari o`rtasidagi ziddiyat mavhum ifodalanadi.

Keysning tuzilishi

Kirish. Keys ob`ektining tarixiy bayoni. Vaziyat: ob`ektning muayyan vaqt davridagi bayoni. Muhokama uchun savollar va keysga savollar keysologning xohishiga qarab qo`shiladi

Muhokama uchun savollar va keysga vazifalar

Agar keys savolli toifasiga tegishli bo`lsa, unda bayon qilingan vaziyat ohirida muammoli vaziyatni tahlil qilish va echish jarayonida muhokama qilish uchun bir nechta savollar keltiriladi. Agar keys-topshiriq bo`lsa muammoli maydon shakllantirilgandan keyin “Kirish” qismida keys echish jarayonida talabalar tomonidan bajariladigan vazifa beriladi.

4. Keysning pedagogik pasporti. Keysni rasmiylashtirish. Keysning tekshirilishi va baholanishi.

Keysning pedagogik pasporti, bu uning tashkiliy-uslubiy ta`minotidir. U quyidagi komponentlarni o`z ichiga oladi:

- pedagogik annotatsiya;
- talabaga uslubiy ko`rsatmalar;
- o`qituvchi – keysologning keysni hal etish varianti;

- ta`lim texnologiyasi.

Pedagogik annotatsiya

Quyidagi elementlarni o`z ichiga oladi:

- 1) Keys mo`ljallangan predmet, bo`lim, mavzu, ta`lim darajasi, kurs ko`rsatiladi.
- 2) Keysdan ko`zlangan maqsad (ta`limiy maqsad, rejalashtiriladigan o`quv natijalari).
- 3) Talabalar keysni muvaffaqiyatli hal etish uchun egallashi lozim bo`lgan dastlabki bilim va malakalar.
- 4) Keys real institutsional tizim faoliyatini aks ettirishi yoki unda keysolog sun`iy modellashtirgan vaziyat bayon qilinishi haqidagi ma`lumot.
- 5) Axborot olish manbalari ro`yxati
- 6) Keysning o`ziga xos belgilariga ko`ra tavsifnomasi (syujet, keys ob`ekti mavjudligi, materialni taqdim etish usuli, hajmi, tuzilmaviy o`ziga xos xususiyatlari, o`quv topshirig`ini taqdim etish usuli, chizmalashtirish usuli).
- 7) Keysdan ko`zlangan maqsad va, tegishlicha, tashkiliy-uslubiy ta`minoti o`zgarganida u qo`llanilishi mumkin bo`lgan o`quv predmetlari ro`yxati.

Talabaga uslubiy ko`rsatmalar

Keys uslubiy pasportining mazkur komponenti quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- keysdagi muammo va kichik muammolar ifodasi (agar keys muammoni izlash va hal etishga o`rgatadigan keyslar toifasiga kirmaydigan bo`lsa);
- muammo echimi algoritmi (ushbu elementning bo`lishini o`qituvchi – keysolog belgilaydi);
- muammoli vaziyatni tahlil etish va hal qilish varag`i yoki muammoli vaziyatni tahlil etish va hal qilishga doir yo`riqnoma;
- keys bilan individual va guruh bo`lib ishlashni baholash mezonlari va ko`rsatichlari;
- o`quv-uslubiy materiallar: hisob-kitoblar qoidalari va formulalari, uslublar va rusumlar bayoni va boshqalar (keysologning fikriga qarab).

Keysning tekshirilishi va baholanishi

Keysning ta`lim amaliyotiga joriy etilishi

Ijobiy ekspert xulosasi va sinovdan keyin keys matni qo`shimcha ishlanadi va uning oxirgi varianti o`quv mashg`ulotlarida ishlatilishi mumkin. Agar keys ta`lim amaliyotiga keng tadbiiq etish maqsatida nashr qilinsa, pedagogik annotatsiyasi va imkon bo`lsa uslubiy ko`rsatmalar tayyorlaydi. Keysolog faoliyati mazmunini:

- *Talabalarga keys pedagogik annotatsiya va o`qituvchining keysni echish variantisiz beriladi.*

Keysni rasmiylashtirish. Keysni rasmiylashtirish yo`llari:

- 1) Qo`lyozma yoki pechat qilingan variantda
- 2) Elektron variantda
- 3) Video variantda
- 4) Audio
- 5) Mul`timedia

Keys-stadi usuli

Amaliy holatlarni o`qitish usuli (Case-stadi)

O`qitish vaziyatining dolzarbligi:

- Aniq vaziyat ta`lim berishni haqiqiylikka bog`laydi: keys ta`lim oluvchilarga vaziyatni tashhis qilish, farazlarni ifodalash, muammolarni aniqlash, qo`shimcha axborotlarni yig`ish, farazlarga aniqlik kiritish va muammolarni echish bo`yicha aniq bosqichlarni loyihalashda Amaliy faoliyatlarini modellashtirish imkonini beradi.

- Keys ta`lim oluvchilarga tahlil ilish, tenglashtirish yo`llarini qidirish va muammoni echish erkinligini beradi.

- Keysni ko`rib chiqishda ta`lim oluvchilar ta`lim olish jarayonini yaratadilar va jarayonda o`zaro harakatda haqiqiy fikr almashish holatlarini yaratadilar.

Ta`lim berish vaziyati- keys-stadi (case ingliz.- to`plam, aniq vaziyat, stadi-o`rganish) – bu usul, odatiy hayotni tashkillashtiruvchi vaziyatlarni yaratuvchi va ta`lim oluvchilardan maqsadga muvofiqroq echim izlashni talab qiluvchi, hayotdan olingan odatiy vaziyatlarni tashkillashtirish yoki sun`iy yaratilgan vaziyatlarga asoslanadi.

Keys - ta`lim oluvchilarni muammoni ifodalashni va maqsadga muvofiqroq echim izlashga yo`naltiruvchi, bir guruh insonlar yoki alohida shaxslarni hayotiy tashkillashidan olingan ma`lum sharoitlarini bayonli taqdim etilishidan iborat.

(2) qo`shimcha axborotlardan, jumladan audio, video-va elektron etkazuvchilar va o`quv-uslubiy materiallardan iborat.

Uzoq g`arbda keyslar o`quv rejasini 25 % tashkil qiladilar.

Keys-stadi usuli qo`llanilgan o`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ishlar bosqichi va mazmuni

Faoliyat ta`lim beruvchi ta`lim oluvchi

Tayyorgarlik

Tanishish uchun talabalarga keys materiallarini tayyorlaydi va avvalgi mashg`ulotlarda tarqatadi.

Keys mazmuni bilan tanishadilar

1 - bosqich

O`quv mashg`ulotiga kirish (5 daq.)

1.1. O`quv mashg`ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni olib borish rejasi

bilan tanishtiradi. Keys ahamiyatini va uni kasbiy bilimlarni rivojlanishiga ta`sirini tushuntiradi. Diqqat qiladilar.

2 - bosqich

Bilimlarni faollashtirish (10daq.)

2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida mavzuning asosiy tushunchalari bo`yicha tezkor-so`rov o`tkazadi (№ Ilova).

2.2. Seminarda ishlash tartibi, baholash ko`rsatkich va mezonlari bilan tanishtiradi (№, ilova).

Savollarga javob beradilar. Muhokama qiladilar, aniqlashtiruvchi savollar beradilar.

3 - bosqich

Alohida ishlash (20 daq.)

3.1. Keys materiallarini muhokama qilishni tashkillashtiradi, ishlash qoidasi, vaziyatlarni

tahlil qilish chizmasi, muammolarni ifodalanishiga e`tibor berishlariga qaratadi.

3.2. Vaziyatni mustaqil tahlil qilishni, muammoni ifodalashni, echish yo`llarini aniqlashni, so`ngra uni echish topshirig`ini beradi Keys materiallarini muhokama qiladilar, aniqlaydilar, savollar beradilar. Mustaqil ravishda tahlil qilish varag`ini to`ldiradilar, muammoni echadilar.

IV -bosqich

Kichik guruhlarda ishlash (20 daq.)

4.1. Talabalarni kichik guruhlarga bo`ladi va topshiriq beradi: vaziyatni muhokama qilish va tahlil qilib ko`rish, guruh uchun vaziyatni tahlil qilish varag`ini to`ldirish, echish tartibini ishlab chiqish, topshiriqni echish, taqdimotga tayyorlanish Keysni echish va taqdimot varag`ini tayyorlash bo`yicha harakatlar qiladilar

V-bosqich

Taqdimot (20daq.)

5.1. Taqdimot, muhokama va guruhlar taqdimotini o`zaro baholashni tashkillashtiradi. Javoblarni sharhlaydi, tahlil qilish va muammoli vaziyatni echish

jarayonida qilingan xulosalarga e'tibor qaratadi. Keys bo'yicha o'zining javobini havola qiladi (№ Ilova)

Guruhlar taqdimot qiladilar Boshqa talabalar munozarada ishtirok etadilar, savollar beradilar

Keys _____ ishlab chiqish va uni amalga oshirish qoidasi

- *Keys bo'yicha asosiy vazifalarning qo'yilishi*

Savollarning maqsadi:

- Ta'lim oluvchida keys materialini bo'yicha bilimni tekshirish («amalga oshirish tartibini yozib bering»).

◆ Hal etish va echish uchun asosiy savollarni aniqlash (ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil savollarni ishlab chiqilishi mumkin).

◆ O'quv rejasi maqsadlarini bajarish (keysni o'rganilayotgan nazariya bilan o'zaro bog'liqlik to'g'risidagi vazifalar)

Kichik – guruhlarda keys bilan ishlashni tashkillashtirish.

- Ish vaqti 15 dan 40 daqiqagacha.

□ Tarkibi: 4 dan 6 gacha kishi.

• Tarkib har doim o'zgarib borishi yoki doimiy bo'lishi mumkin.

• Guruhlar alohida bo'lmasliklari lozim.

1. Har bir guruhda echim yozuvlari va imkoniyatlarni tanlash uchun (ta'lim beruvchini nazorati uchun) (A4) kata bloknot bo'lishi kerak.

• Har bir guruh taqdimot uchun javobgar sardorni mustaqil tanlaydi

2. Keysni rejalashtirish

- Keys ishonuvchan axborotni o'z ichiga olishi lozim.

- G'ayrioddiy va yangilari sharhlanishi lozim.

- Berilganlar aniq bo'lishi lozim.

- Jadval, sxema va grafiklar iloji boricha tez-tez ishlatilishi lozim.

Mumkin qadar audio, video vositalar va komp'yuter texnikalaridan foydalanish, shuningdek keysni muhokamasiga keys hodisalarining haqiqiy ishtirokchilarini taklif qilish.

• Odatda sardorlarning chiqishi 10-15 daqiqagacha davom etishi mumkin. Uni bo'lish mumkin emas, savollar uning chiqishidan so'ng beriladi.

- Mavzu bo'yicha: taqdimotni qanday o'tkazish (ya'ni, kirish, asosiy mazmun, rezyume), hamma oldida taqdimotni o'tkazishni o'rganish bo'yicha dastlabki mashg'ulot o'tkazish mumkin.

Guruh xulosasining

Keys bilan ishlashni baholash mezonini

- Holatni chuqurroq tahlil qilish tartibi, nazariy bilishi.

- Muammo xulosasini asoslanishi.

- n...

1. Vaqt ko`pi bilan 20-25 daqiqa.

2. Ta`lim beruvchi-munozara tashkilotchisi savollar beradi, e`tirozlar qiladi, nazariy materialni esga soladi.

- Hamma ta`lim oluvchilarning ishtiroki munozaraga keng qiziqtirilgan bo`lishi kerak

Ta`lim beruvchining vazifasi

1) Qisqartirilgan yo`li – ta`lim beruvchi tomonidan topshiriq qo`yilgandan so`ng kichik guruhlarda ish olib borilmaydi – o`sha zahoti muhokama qilinadi va natijalar bo`yicha- ta`lim beruvchi fikrini bildiradi.

- Nazorat qilish yo`li – an`anaviy imtixon o`rniga ta`lim oluvchi keys bo`yicha savollarga yozma javob beradi.

- Keys ustida ishlash bir oy va undan ham ko`proq vaqtni olishi mumkin. Ta`lim beruvchi ish jadvali bo`yicha maslahat beradi, bitiruv ishi natijalarini (keys mavzusi bo`lib kurs ishining topshirig`i bo`lishi mumkin) tahlil qiladi

- Sharhlovchi va maslahatchi vazifasi.

- Natijalarni emas, muhokama tahlilini o`tkazadi.

- Kichik guruhlar taqdimoti, harakatlarini baholaydi, nazariy «muvaffaqiyatsizliklar» ni aniqlaydi va b.

KEYS

Ma`naviy tahdidlar va ularga qarsha g`oyaviy kurashish

Kirish. “Globallashuv jarayonlari va ma`naviy tahdidlar” mavzusi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I

“

–

”

,

’yicha fakul’tativ

1

¹ I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”T.2008-y.110-bet

-
i

— qaerda

-

-

Quyidagi keys - ma`naviy barkamol va komil insonning aqliy, axloqiy, ma`naviy fazilatlari yuksak bo'lishi, kishilarning chuqur va zamonaviy bilim, keng dunyoqarashi, mustaqil fikrlash salohiyatiga ega bo'lishi, uning yuksak ma`naviy kamolot sohibi bo'lishining asosiy shakli – yuksak ma`naviyatning muhim omili ekanligini ko'rsatib berishga, ma`naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar va ularning oldini olish yo'llarini ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mavzu bo'yicha ma`naviy taraqqiyot mezonlari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarur.

Tavsiya etilgan keysni echish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- muammoning hamda qabul qilingan echimning individual va guruhviy tahlilida bilim va ko'nikmalarni qayta topshirish;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash;
- o'quv axborotlarini o'zlashtirish darajasini tekshirib ko'rish.

Beparvolik va loqaydlikka yo'l qo'ymaslik, hushyorlik va jonkuyarlik

(Muammoli vaziyat)

Hozirgi paytda insoniyat hayotiga katta xavf tug`dirayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkoagressiya va SPİD **’pchilik yaxshi biladi.** **hamma ham**, **’zga**, **ma`**, **chiqarishga** **jiddiy xatarlar ham**, **kech** **’ladi. Bular** **’arb va falsafasidir.**

“Menga nima” deb qarash, loqaydlik, bepisandlik, o`zini, o`z manfaatini hammadan ustun qo`yish, xudbinlik, hamma narsalar mening huzur-halovatinga xizmat qilishi kerak, deyish, shuhratparastlik, kibr, mahmadonalik, tajanglik, birovni eshita bilmaslik, xatosini tan olmaslik, sovuqqonlik, tanqidga chidamsizlik – egotsentrizm dardiga duchor bo`lgan odamning belgilari.

Masalan, ikki nafar o`smir mahallamizda sigaret chekib turibdi. **ilgari** **’rib, “le. Nega chekadi-ya bu** **”, deb,** **berardik.** **esa** **’xtab, gapirishga** **etmaydi. Ichimizdagi** **“Nima** **buzib.** **’** **-**

”, - **’** **’tgach mahallada sigaret chekib tu** **’**

’ **“** **”, deydi. Biz esa, “** **”, –** **’limiz** **’tgach,** **’** **-** **’** **’g`irlik,** **’**

’ **’** **’rashga kirishishibdi.**

Bobolarimiz: “Bir bolaga etti qo`shni ham ota, ham ona” degan, shunga amal qilgan. Ko`rayapsizmi? Lekin nega biz bobolar udumiga amal qilmadik? Avlodlar

haqida qayg`urmadik. Boshimizga obdan birin-ketin kulfatlar tushgandan keyingina odamiylik va insonparvarlik haqida o`y lay boshladik?

Odam qanday qilib egotsentrist bo`lib qoladi? Ota-onaning pedagog dastidan. Qanday qilib? Ota-ona o`zlari tuqqan bolasini eru jahonga ishonmay bu dunyoning markaziga aylantirib oladilar. Bolaga buni (dunyoning markazi bo`lishni) o`rgatishadi. Bola nima qilsin? O`rganadi. Bunday ota-onalar tarbiyasida:“Faqat mening bolamga yaxshi bo`lishi kerak. Bolam baxtli bo`lishi kerak” degan tamoyilga amal qiladilar va ... qattiq adashadilar.

Bolasining istagan, hatto istamagan, so`ramagan narsalarni ham uyub tashlashadi. Mehnatni, birovga g`amxo`rlikni, boshqalar ham xuddi o`zi kabi odam ekanligi, ularning ham hurmati, manfaatlari borligini eslatmaydilar.

Bola bog`chasiga boradi. O`zidek bolalar bilan birinchi uchrashuv. Boshqalardan ota-onasinikichalik g`amxo`rlikni kutadi. Ko`rmagach talab qiladi. Birinchi uchrashuv – jamoa bilan birinchi to`qnashuvga aylandi. Yig`laydi.

Maktabda muomala, murosa, burchni bilmaydi. Mas`uliyatsiz. Jon kuydirmaydi. Ota-ona buni qo`llab-quvvatlaydi. Boshqa maktabga ko`chiradi. “katta bo`lsa hammasi joyiga tushib ketadi”, - deb o`zlarini aldaydilar. U katta bo`ladi. Unga qo`shilib talablari, ishyoqmaslik, mas`uliyatsizlik, boshqalarga iddaolari, illatlari ham voyaga etadi. Kuchga kiradi.

Ota-onaning belidan kuchi, cho`ntagidan baraka ketadi. Endi befoyda, keraksiz odamlarga aylanib qoladilar.

Xudbin yigit endi jamoaviylik, ko`pchilik bo`lib yashash tartib-qoidalariga, burchlariga to`qnashadi. Birinchi to`qnashuvdayoq engiladi. “Men yaxshi – hamma yomon” degan qulay yolg`on qobig`iga uy qurib, yashay boshlaydi. Shunday qilib, ota-onaning, kishilarning loqaydligi jamiyatdan, hayotdan asossiz norozi egotsetristlarni paydo qiladi. Ma`naviy qarovsizlik, burchsizlik o`smirni giyohvandlarga, jinoyatchilarga, kim mo`may pul va`da qilsa, o`shalarga topshiradi.

Shu tariqa, egotsentrist-xudbinlar jabrini birinchi – ularning ota-onalari tortadi. Keyin boshqalar. Chunki tushuntirib, odamlarga yaxshilik qilish kerak desangiz, “buning tomi ketibdi”, - deb o`y laydi. “Vatanga nima berding?” desangiz, u: “Vatanim menga nima berdi?”, - deydi o`qrayib. Chunki u tug`ilgani, yashayotgani borligi uchun hamma unga nimadir berishi kerak. U esa hech kimga hech narsa bermasligi kerak. U sizga “foydalansa bo`ladigan yo bo`lmaydigan narsa”, - deb qaraydi. Bizlarni bu ko`y ga tushishdan Xudoning o`zi asrasin.

Xulosa.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim sohasida olib borilayotgan kadrlar tayyorlash bo'yicha islohotlar mamlakat iqtisodiyotini malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga imkon beradi. Mazkur masalaning dolzarbligini ta'kidlab, Prezidentimiz I.A.Karimov “-O'zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoit- larga ega”, degan edi. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi. Bu mamlakatimizning jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchi va talaba yoshlar ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularga berilayotgan ta'lim mazmunini kengaytirish, chuqurlashtirish va boyitish hamda ta'lim uzluksizligini ta'minlab berish uchun yangidan-yangi qonunlar va hujjatlar qabul qilinmoqda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yaratilmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiya fan asoslari bo'yicha o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish va amalga oshirishni ko'z-da tutadi.

Ayni davrda, zamonaviy pedagogik texnologiya — tizimli yondashuvlar asosida o'qitishning shakllarini qulaylashtirish, uning natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun zarur bo'lgan inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro hamkorligini namoyish qiladi.

Oliy ta'limdagi islohotlar zamonaviy bosqichi demokratik yuksak rivojlangan mamlakatlar darajasida O'zbekistonning ilg'or ilmiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta'minlashga qodir va ma'naviy, madaniy va axloqiy sifatlarga ega yuksak malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni talab etadi.

Oliy maktabda ta'lim mazmuni mutaxassislar shaxsini rivojlantirish, ularning chuqur fundamental bilimlarini va amaliy tayyorgarliklarining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Oliy maktabda ta'limning yangi mazmuni zamonaviy bosqichda davlat standarti bilan belgilanadi. Oliy ta'lim standarti kadrlar tayyorlash, ta'lim mazmuni sifatiga talablarni belgilaydi.

Davlat standarti me'yoriy hujjatlari asosida oliy maktabda o'qitish jarayonini takomillashtirish yo'llari belgilanadi. Oliy maktabda o'qitish jarayoni ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlar bilan belgilanadi va o'qitish tashkiliy shakllari va metodlari turli-tuman tizimlari doirasida amalga oshiriladi.

Bilim olish faoliyati nazariy asoslarini asoslash uchun yaqin sharq va Markaziy Osiyo qomusiy olimlarining pedagogik qarashlari muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim mazmunining sifatini takomillashtirish pedagogikadagi bugungi kunda yangi pedagogik innovatsiya yo'nalishisiz mumkin emas. Oliy maktabda innovatsiyon jarayonlar innovatsiyon xususiyati yangiliklar kiritish, o'qituvchilar kasbiy imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim texnologiyalari ilmiy asoslarini, mualliflik maktablarini va yangi tajriba texnologiyalarini ishlab chiqish bilan bog'liq. Mazkur qo'llanmada pedagogik texnologiyalami tizimlashtirish va umumlashtirishga urinishlar ushbu muammoni hal etmaydi. Ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish oliy maktabda o'quv jarayoni yangi texnologik muammolami qo'yishni va hal etishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Milliy istiqlol g`oyasi asosiy tushincha va tamoyillar. T.O`zbekiston, 2005
2. I.A.Karimov. «Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch» T. Ma`naviyat, 2008
3. I.A.Karimov. «Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish»
T.O`zbekiston, 2009
4. I.A. Karimov. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q» T. SHarq, 1998 y.
5. I.A Karimov. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz.» O`zbekiston 2000 y.
6. I.A Karimov. «Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir» Toshkent, «O`zbekiston», 2000- yil.
7. Ishmuhamedov R. « Innovatsion texnologiyalar yordamida ta`lim samaradorligini oshirish yo`llari» Toshkent, Nizomiy nomdagi TDPU, 2009.
8. Saidaxmedov N.S. « Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llash namunalari» Toshkent, RTM, 2000.-46 b.
9. O`.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. « Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot» T. FAN, 2005